NKMK — yuksak sifat, samaradorlik va ijtimoiy himoya kafolati!

# KONCHILAR HAYOTI

Gazeta 1991-yildan chiqa boshlagan
№17 (779), 2024-yil 16-sentabr
facebook.com/nkmkofficial
t.me/ngmkofficial
instagram.com/nkmk.official
www.ngmk.uz

■ Bugunning mavzusi

## KOMBINAT AVTOPARKI YANGILANMOQDA

**Hozir dunyoda ekologiya eng global muammoga aylangan. Ekologiyaga salbiy ta'sir qiluvchi, ortiqcha isrofgarchiliklarni keltirib chiqaruvchi turli omillar mavjud. Ular orasida transport vositalarining ham atrof-muhitga ta'siri katta ekanini yaxshi bilamiz. Ayni paytda jahonda bu muammolarni hal qilishga qaratilgan muhim jarayonlar ketmoqda. Rivojlangan davlatlar qatorida O'zbekiston ham ekologiya, elektr manbaini asrab-avaylashga qaratilgan ishlarni allaqachon boshlab yuborgan. "Yashil" transport, "yashil" makon, "yashil" iqtisodiyot va hokazolar shular jumlasidandir.**



Ma'lumki, so'nggi yillarda mamlakatimizda elektr energiyasi quvvati asosida harakatlanadigan avtotransport vositalari soni ortib, keng ommalashib bormoqda. Xalqimiz bunday texnikalardan foydalanishning ham iqtisodiy, ham ijobiy tomondan afzalliklarini chuqur anglab yetayapti. Energiya quvvatida ishlaydigan transport vositalari kamxarjligi, tashqi olamga ta'siri yo'qligi bilan aholi, iqtisodiyot tarmoqlariga har jihatdan ma'qul kelmoqda.

Shu o'rinda barcha uchun qiziqarli bo'lgan "yashil" transport va bu borada Navoiy kon-metallurgiya kombinatida olib borilayotgan ishlarga to'xtalib o'tsak.

Navoiy kon-metallurgiya kombinatida asosiy yoqilg'i hajmini katta hajmdagi yuklarni tashuvchi kon avtoag'dargichlari sarflaydi. Katta hajmdagi yuklarni tashuvchi kon avtoag'dargichlarning o'rtacha kunlik yoqilg'i sarfi 2 tonna atrofida. Bir yilda 1 dona avtoag'dargich o'rtacha 750 tonna dizel yoqilg'isi sarflaydi. Avtoag'dargichlar asosiy yoqilg'i miqdorini yuk bilan tepaga haraktlangan vaqti sarflaydi. Yoqilg'i sarfini kamaytirish o'z navbatida katta iqtisodiy samaradorlikka erishishga va ichki yonuv dvigatellarining chiqindi gazlarini atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirishga olib keladi. Shu maqsadda hozirgi vaqtda kombinatda kon ishlariga yetakchi davlatlarda qo'llanilib kelinayotgan dizel-trolleyvoz tizimida ishlaydigan elektro-mexanik transmissiyali avtoag'dargichlarni joriy etish ustida jadal ishlar olib borilmoqda.

Jaxondagi yetakchi davlatlarda konchilik sanoatida katta hajmdagi yuklarni tashuvchi kon avtoag'dargichlari uchun trolleyli tizimni ko'llash o'sib borayotgan zamonaviy yo'nalish bo'lib, ayniqsa neft mahsulotlarining narxi yuqori va o'sib borayotgan davrda ularni tejash dolzarbligi bilan ajralib turadi.

Xususan, Amerika Qo'shma Shtatlarida joriy etilgan dizel trolleyvoz tizimi tajribasi o'rganildi va tahlillar natijasida "Muruntov" koni sharoitida ushbu tizimni joriy etishga qaror qilindi.

Dizel trolleyvoz ikki rejimda ishlashi mumkin - dizel va trolleyvoz. Trolleyvoz rejimi avtoag'dargichlarda kon jinsini tashish uchun, dizel rejimi avtoag'dargichlarni ekskavator va yuklagich ostiga qaytarish (harakatlanish) uchun yoki elektroenergiya yo'q bo'lganda kon jinsini tashish uchun ishlatiladi.

Foydalanib kelinayotgan avtoag'dargichlar bilan taqqoslaganda dizel-trolleyvoz pantograflar, himoya va diagnostika tizimining elementlari bo'lgan qo'shimcha quvvat shkafi hamda trolleyvoz rejimini boshqarish vositalari bilan jihozlangan, bundan tashqari ushbu tizimni joriy etish uchun energiya ta'minoti - aloqa tarmoqlari va podstansiyalarni qurish lozim.

Yangi tizimni joriy etishda kombinat dunyoning ilg'or kompaniyalari "Siemens", "Komatsu", "IKO Group" va boshqalar bilan hamkorlikda ish olib bormoqda. Trolleya liniyasi elektr ta'minoti tizimining jihozlarini "O'zelektroapparat-Electroshield" AJ bilan hamkorlikda mahalliylashtirish ustida o'rganish ishlari olib borilmoqda.

Bugungi kunda "Muruntov" konida trolleyvoz tizimida ishlash imkoniyati mavjud bo'lgan, yuk ko'tarish qobiliyati 254 tonnalik 6 dona KOMATSU 860E-1K avtoag'dargichlari bor (hozirda dizel tizimida ishlamoqda). 2024-yil yakuniga qadar ushbu avtoag'dargichlar umumiy soni 10 donaga yetkaziladi.

Jahondagi yetakchi davlatlarning tajribasi shuni ko'rsatdiki ushbu, yangi tizim orqali quyidagi ijobiy natijalarga erishish mumkin:

- dizel trolleyvoz tizimida tashqi elektr ta'minotiga ulanish evaziga yoqilg'i sarfini 30 foizgacha iqtisod qilish;
- dizel trolleyvoz tizimida avtoag'dargichlar yuk bilan yuqoriga harakatlanish tezligini oshirish;
- avtoag'dargichlar ish unumdorligi va ruda tashish hajmini oshirish;
- atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish (chiqindi gazlarini kamaytirgan holda);
- dizel dvigatellarining foydalanish muddatini oshirish, texnik xizmat ko'rsatish oralig'ini oshirgan holda sarf-xarajatlarni kamaytirish;
- shovqin va tebranishni kamaytirish.

Shuni ta'kidlash kerakki, mamlakatimizda "yashil" transportni barcha soha va tarmoqlarga faol joriy etish, elektromobillar va ularning butlovchi qismlarini ishlab chiqarish orqali havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini qisqartirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Davomi 2-betda ▶

## ENERGIYA RESURSLARINI TEJASH

### Navoiy kon-metallurgiya kombinatida qanday bormoqda?

**Sanoatning rivojlanishi, energiya iste'molining ortishi natijasida energiya resurslariga bo'lgan talab yildan-yilga oshib bormoqda. Bu, energiyani tejash, energiya resurslari iste'molini maqbullashtirishning tejamkor va samarali usullarini qo'llashni taqozo etmoqda.**



Buning uchun har bir korxona o'zining puxta tuzilgan dasturiga asoslangan chora-tadbirlariga, ya'ni, uzoq davrga mo'ljallangan strategiyasiga ega bo'lishini talab etadi. Chunki, energiyadan samarali foydalanish korxona faoliyatini ekologik va iqtisodiy jihatdan ham yaxshilaydi.

Bugungi kunda respublikamizda energiya resurslaridan foydalanishda isrofgarchilikni kamaytirish, iqtisodiyot tarmoqlari obyektlarida energiya samaradorligini oshirish, energiya resurslaridan oqilona foydalanishni tizimli yo'lga qo'yish va nazoratni ta'minlash bo'yicha qator qaror va hujjatlar qabul qilingan.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-iyundagi "Energiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bilan 2024-yilda "Navoiy KMK" AJda elektr energiyasi va tabiiy gazni tejash maqsadli ko'rsatkichlari belgilab berilgan. Joriy yilda kombinatda 201,4 million kVt soat elektr energiyasi va 3,5 million kubometr tabiiy gazni iqtisod qilish vazifasi qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining ko'rsatmasi asosida ushbu yil uchun elektr enegiyasi va tabiiy gazni iqtisod qilishning maqsadli ko'rsatkichlariga qo'shimcha elektr energiyasi va tabiiy gazni 10 foizga tejash ko'rsatkichlari qayta ko'rib chiqildi. Unga ko'ra, kombinatda qo'shimcha 61 million kVt soat elektr energiyasi va 3,59 million kubometr tabiiy gazni tejash rejalashtirildi.

Ushbu maqsadli ko'rsatkichlarga erishish maqsadida kombinatning alohida buyrug'i qabul qilindi. Joriy yilda jami 262,4 million kVt soat elektr energiyasi va 7,09 million kubometr tabiiy gazni tejash, ishlab chiqarish obyektlarida energiya samaradorligini oshirish, energiya resurslaridan oqilona foydalanishni qat'iy nazoratga olishga qaratilgan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi. Ayni paytda bu muhim vazifani bajarishda barcha mavjud imkoniyatlar ishga solinib, ijrosi bosqichma-bosqich ta'minlanmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, joriy yilning 27-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida energiya tejamkorligini ta'minlash, muqobil quvvatlardan foydalanishni kengaytirish masalalari muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazildi. Unda mamlakatimizda energiya resurslariga bo'lgan talab yildan-yilga oshib borayotganini inobatga olib, hududlarda elektr energiyasi va tabiiy gazni tejash, muqobil energiya manbalarini o'rnatish bo'yicha belgilangan chora-tadbirlar ijrosi muhokama etilib, ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Yig'ilishda berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida Navoiy kon-metallurgiya kombinati, viloyat hokimligi, viloyat prokuraturasi, iqtisodiyot va energetika tarmoqlari vakillari, universitet olimlari ishtirokida hududda energiyatejamkor texnologiyalarni keng joriy etish bo'yicha ilmiy hamkorlikni yo'lga qo'yishga qaratilgan yig'ilish tashkil etildi. "Navoiy KMK" AJ Boshqaruvi raisi – Bosh direktori Q.Sanaqulov, viloyat hokimi o'rinbosari E.Kamolov, viloyat prokurori A.Mirzayevlar ishtirokida o'tgan tadbirda viloyatda elektr energiyasi va tabiiy gazni tejash, muqobil energiya manbalarini o'rnatish bo'yicha davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan topshiriqlarni amalga oshirish yuzasidan Ishchi guruh tasdiqlanib, vazifalar belgilandi va ijrosi bo'yicha doimiy monitoring olib borish yo'lga qo'yildi. Tadbir doirasida universitet olimlari tomonidan ilmiy yondashuv asosida energiyatejamkor texnologiyalardan foydalanishga bag'ishlangan ko'rgazma namoyish etildi, loyihalar taqdimoti o'tkazildi.

Bir so'z bilan aytganda, maqsadli ko'rsatkichlarga erishish energiya resurslaridan samarali va oqilona foydalanish, kombinatda mahsulot tannarxini, ekologik jihatdan esa atmosferaga chiqindi gazlar chiqarilishini kamaytirishga olib keladi.

**G'olibjon XOLBOYEV,**
**"Navoiy KMK" AJ bosh energetigi.**

■ Yangiliklar. Xabarlar.

**Keyingi oylar "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati uchun yangi muvaffaqiyatlar keltirmoqda. Korxona bu davrda amalga oshirgan ishlari, yutuqlari uchun uchta xalqaro darajadagi sertifikatni qo'lga kiritdi.**

## E'TIROF

Kompaniyamiz o'z tarixida "S&P Global Ratings" va "Fitch Ratings" xalqaro reyting agentliklari tomonidan ilk marotaba "Barqaror" prognozi bilan "BB-" darajasidagi uzoq muddatli kredit reytinglari olgani, ISO 37001:2016 Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi xalqaro sertifikatini qo'lga kiritgani shular jumlasidandir.

Yaqinda kombinat yana bir e'tirofga sazovor bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti rivojiga munosib hissa qo'shgan eng namunali soliq to'lovchi sifatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining Faxriy yorlig'i bilan taqdirlandi

Ma'lumki, kombinatimiz O'zbekiston iqtisodiyotida salmoqli ulushga ega. Korxonaning mamlakatimiz davlat budjeti daromadlarini shakllantirishdagi ulushi 16,7 foizni tashkil etadi. Birgina, 2023-yilda davlat budjetiga 38,6 trillion so'mlik (3,3 milliard AQSh dollari ekvivalentida) to'lovlar amalga oshirilgani buning isboti. Eng quvonarli jihati shundaki, bunday yuqori natijalar bilan kombinat ko'p yillardan buyon "Eng yirik soliq to'lovchi" maqomini o'zida saqlab kelyapti. Soliq qo'mitasining Faxriy yorlig'i ko'pming kishilik jamoamizning yurtimiz taraqqiyotiga qo'shib kelayotgan munosib hissasi, fidokorona mehnatning yuksak darajadagi e'tirofidir. Kombinat 2024-yilda ham budjetga 45,4 trillion so'm to'lovlarni amalga oshirishi reja qilingan.

**Mardon JABBOROV,**
**"NKMK" AJ Soliq hisobi bo'limi boshlig'i.**

**2024-yilning avgust oyida "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ va "MUFG" banki o'rtasida 150 million AQSh dollari miqdorida ikki tomonlama kredit shartnomasi imzolandi.**

## KREDIT SHARTNOMASI IMZOLANDI

Ushbu kredit mablag'lari NKMKning amaldagi investitsiya dasturining loyihalarini uzluksiz moliyalashtirishni ta'minlaydi. Bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan loyihalar qayta ishlash quvvatlari va ishlab chiqarish hajmini oshirish, konlarni o'zlashtirish, yangi ishlab chiqarish obyektlarini ishga tushirish va amaldagilarini modernizatsiya qilish hisobiga yangi ish o'rinlarini yaratishga qaratilgan.

"Mitsubishi UFJ Financial Group, Inc." ("MUFG") dunyodagi yetakchi moliyaviy guruhlardan biridir. "MUFG" bosh ofisi Tokioda joylashgan va 360 yildan ortiq tarixga ega. Kompaniya 40 dan ortiq mamlakatlarda 2 mingga yaqin filiallardan iborat global tarmoqqa ega. Guruh 120 ming nafarga yaqin xodimlarga ega bo'lib, tijorat bank xizmatlari, qimmatli qog'ozlar, kredit kartalar, iste'molchi moliyasi, aktivlarni boshqarish va lizing xizmatlarini taklif etadi.

**Mamlakatimiz mustaqilligining o'ttiz uch yilligi arafasida Shimoliy kon boshqarmasi Markaziy fizika-kimyoviy laboratoriyasining yangi binosi ochilib, uning tarkibida zamonaviy biolaboratoriya ishga tushirildi.**

## YANGI LABORATORIYA

### yangi binoda ish boshladi

Yangi biolaboratoriyada 3-gidrometallurgiya zavodida qo'llanilayotgan "Biox" bakterial oksidlash jarayonida bakteriyalarni o'rganish, ularning faolligini oshirish, ozuqa moddalari sarfini optimallashtirish hamda oksidlash jarayonini yaxshilash bo'yicha tadqiqotlarni tizimli olib borish imkoniyatlari mavjud. Laboratoriyaga o'rnatilgan barcha uskuna va jihozlar Navoiy mashinasozlik zavodida tayyorlandi.

– Zavodda biooksidlash jarayoni tarkibida oltin bo'lgan sulfidli flotatsiya konsentratlarini turli bakteriyalar yordamida oksidlanishiga asoslangan. Hozirda "Biox" sexidagi 6 ta bioreaktorda 12 ta biooksidlash modullari mavjud bo'lib, ular ishlab chiqarish sur'atini ta'minlashga xizmat ko'rsatmoqda, - deydi Markaziy fizika-kimyoviy laboratoriyasi boshlig'i Alisher Botirov. – Bugun ishga tushirilgan biolaboratoriya oyiga 10 mingdan ortiq namunani tahlil qilish quvvatiga ega. Uning qulayliklari esa ishlab chiqarish, tadqiqot ishlarida samaradorlikni ta'minlaydi.

**Laylo KARIMOVA.**

**"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati faoliyatida xalqaro standartlarni joriy etish, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, korrupsiyaga qarshi kurash borasida tizimli ishlar olib borilmoqda.**

## XALQARO STANDART JORIY ETILDI

Joriy yilda kombinatda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida tashkil etilgan boshqaruv tizimi va mexanizmlar "Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi" ISO 37001:2016 xalqaro standarti talablariga muvofiqligi "CERT International" tashkiloti tomonidan tashqi auditdan o'tkazildi.

Yaqinda "CERT International" tashkiloti tomonidan kombinatga ISO 37001:2016 xalqaro standart sertifikati topshirildi. Sertifikatni "NKMK" AJ Boshqaruvi raisi – Bosh direktori Quvondiq Sanaqulov qabul qildi. Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori Akmal Burxanov videokonferens aloqa orqali ishtirok etib, o'z fikr-mulohazalarini bildirdi.

Tadbirda mazkur xalqaro standart kompaniyada korrupsiyaga qarshi kurashning samarali tizimini yaratishning xalqaro usullarini o'zida jamlash va korrupsiyaga qarshi mukammal boshqaruv tizimini yo'lga qo'yishga xizmat qilishi to'g'risida so'z yuritildi.

Komplayens xizmati boshlig'i Rustam Avezov ta'kidlaganidek, Komplayens xizmatining asosiy vazifalari korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish va ularni keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni aniqlab bartaraf etish choralarini ko'rish, ishchi-xodimlar uchun huquqiy targ'ibot va profilaktik tadbirlar o'tkazish, xaridlar sohasini nazorat qilish, o'rganish va xizmat tekshiruvlarni o'tkazish, xalqaro sertifikatlarni olish hamda xodimlarning malakasini oshirishdan iboratdir.

"NKMK" AJda faoliyatida ISO 37001:2016 xalqaro standarti joriy etilishi kompaniyaga nisbatan fuqarolarning ishonchini oshirish, kombinatning xalqaro nufuzi, imidjini yuksaltirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

**"NKMK" AJ matbuot xizmati.**

■ Bugunning mavzusi

# KOMBINAT AVTOPARKI YANGILANMOQDA

Oxiri. Boshlanishi 1-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-dekabrdagi “Elektromobillar ishlab chiqarishni tashkil etishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bu boradagi ishlarni yanada jadallashtirdi.

Xususan, atrof-muhit muhofazasi va tozaligini ta’minlashga hissa qo‘shish maqsadida qabul qilingan “Kombinatda 2023-2025-yillarda elektromobillar, gibrid transport vositalarini joriy etish” loyihasi bu borada birinchi qadam bo‘ldi. Bu loyihaning asosiy maqsadi – kombinat avtoparkidagi ma’nan eskirgan, atrof-muhitga salbiy ta’siri sezilarli bo‘lgan va jahonda yoqilg‘i-moylash mahsulotlari narxi, taqchilligi keskin ortib borayotgan hozirgi davrda foydalanib kelinayotgan texnikalarni zamonaviy avtotransport vositalari hisobiga yangilashdan iborat.

Ma’lumki, transport sohasi kombinatda alohida o‘rin egallaydi. Hozirda ulkan korxona avtomobil transportida sohaning 10 ming nafardan ziyod xodimlari mehnat qilmoqda, turli rusumdagi 4 mingdan ziyod avtotransport vositalari va mexanizmlar mavjud.

Hozirda kombinat avtoparkida foydalanib kelinayotgan, Yaponiya, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Germaniya, Rossiya davlatlarida ishlab chiqarilgan transport vositalarining o‘rtacha foydalanish davri 20 yilga yaqinni tashkil etadi. Ushbu texnikalar ma’nan va jismonan eskirganligi hamda avtotransport vositalarini ta’mirlash uchun zarur asosiy ehtiyot qismlari import mahsuloti bo‘lganligini inobatga olsak, tabiyki bu ortiqcha sarf xarajatlarga olib keladi. Shuning uchun ushbu avtomobillarni yangilash maqsadga muvofiqdir. Kombinat parkidagi ishlash muddatini o‘tab bo‘lgan avtomobillar qoldiq bahosida auksion savdo orqali sotilishi rejalashtirilmoqda.

Yuqorida qayd etilgan loyihani amalga oshirish maqsadida kombinat avtokorxonalari transport parkini 2023-2025 yillarda elektromobillar va gibrid transport vositalari bilan yangilash ishlari bosqichma-bosqich davom etmoqda. Joriy yilda kombinat avtoparklari Jizzax viloyati avtomobil zavodida ishlab chiqarilayotgan elektromobil va gibrid avtomobillari bilan yangilanishi ko‘zda tutilgan.

Buning yana bir ijobiy jihati bor. Jumladan, yangi avtomobillar olish orqali biz, nafaqat o‘z imkoniyatlarimizni yaxshilaymiz, balki mahalliy ishlab chiqaruvchilarni ham qo‘llab-quvvatlagan bo‘lamiz. Shuningdek, alternativ yoqilg‘i turiga o‘tish korxonamiz uchun iqtisodiy samaradorlikka erishish, havo ifloslanishining oldini olishga olib keladi. Buni hech ikkilanmasdan iqtisodiyot va ijtimoiy rivojlanish yo‘lidagi muhim strategik qadam, deyish mumkin.

**Rustam ERGASHEV,**
**“NKMK” AJ Transport bo‘yicha direktori.**

■ Mehnat jamoalarida

# KORXONA FAOLIYATI KENGAYMOQDA

**Olti yuz nafardan ziyod ishchi-xodim mehnat qilayotgan Zarafshon ta’mirlash-mexanika zavodi peshqadam korxonalardan biridir. Zavodda avval mahalliylashtirilgan, import o‘rnini bosuvchi va asosiy faoliyat turi bo‘yicha 2 ming turdan ortiq mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo‘lsa, ayni paytda bu mahsulotlar turlari 8 mingtaga yetdi. Investitsiya dasturi doirasida yirik loyihalarning amalga oshirilishi, yangi zavodlarning barpo etilishi hamda qo‘shimcha quvvatlarning ishga tushirilishi natijasida zavod mahsulotlariga bo‘lgan talab yildan-yilga ortib bormoqda.**

Misol uchun, korxonada 2018-yilda 48,3 milliard so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023-yilga kelib 181,1 milliard so‘mga yetdi. Joriy yilning o‘tgan davrida 111,8 milliard so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi va yil oxiriga qadar ishlab chiqarish hajmini 191,8 milliard so‘mga yetkazish rejalashtirilgan. Bu, 2023 yilga nisbatan 6 foizga ko‘p demakdir.

Zavodda bitta sex, oltita uchastka, byuro va xizmatlar faoliyat ko‘rsatadi. Ilgari Markaziy kon-boshqarmasiga qarashli ko‘p tarmoqli sex bo‘lgan bu sanoat korxonasi bugungi kunga kelib yirik zavod maqomini oldi. Zavod Navoiy kon-metallurgiya kombinati va uning bo‘linmalari uchun zarur jihozlar va moslamalarni o‘z vaqtida, sifatli ta’mirlash va tayyorlab berishga xizmat qiladi. Zaruriy jihoz va moslamalarga talabning oshishi tufayli ishlab chiqarish ko‘lami yanada kengaymoqda.

– Birgina 2020-yilda konveyyerlar uchun oyiga 100 ta rolik tayyorlangan bo‘lsa, hozir bu ko‘rsatkich 1200 dan ziyodni tashkil etayapti. So‘nggi yillarda qo‘shimcha yangi rusumdagi bir necha suv nasoslari tayyorlanmoqda, nasoslarni ta’mirlash 1,5 baravarga ko‘paydi. Korxonamiz faoliyatida mahalliylashtirish muhim o‘rin tutadi. Kombinatning deyarli barcha bo‘linmalari buyurtmalarini tayyorlaydigan jamoamiz mahalliylashtirish dasturi doirasida samarali natijalarga erishmoqda. Korxonada 2018-2023-yillarda 150,1 milliard so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi. O‘tgan yili mahalliylashtirish dasturi doirasida 31 ta loyiha bo‘yicha ishlab chiqarilgan mahsulotlar qiymati 26,56 milliard so‘mni tashkil etib, 2018-yilga nisbatan 2 barobarga oshdi, – deydi zavod direktori Yuldash G‘aniyev.



Kombinat rahbariyatining tashabbusi bilan 2021-yilda Xorazm viloyati Tuproqqal’a tumani Sarimoy maydonida 20 kishidan iborat payvandlash-mexanika uchastkasi tashkil etilgan edi. Bu uchastka kengaytirilib, hozirgi kunda oyiga 1 milliard so‘mlikga yaqin mahsulot ishlab chiqarilmoqda. Kombinat ijtimoiy mas’uliyatni zimmasiga olib, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, qo‘shimcha ish o‘rinlarini tashkil etish, aholini ish bilan ta’minlashga alohida e’tibor qaratmoqda. Tabiiyki, bu insonlar hayotiga yangi mazmun olib kirayotir. Bundan odamlarning ko‘ngli tog‘day ko‘tarilib, ertangi kunga ishonchi ortmoqda. Katta sa’y-harakatlar bilan boshlangan xayrli ish qisqa davrda o‘z samarasini berayapti. Ayni paytda uchastkada 40 dan ortiq turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish o‘zlashtirilib, bo‘linmalarga o‘z vaqtida yetkazib berilayotir. 80 nafar sarimoylik yoshlar nasoslarning ehtiyot qismlari va uzellari, vallar, yarimmuftalar, har xil turdagi korpuslar, boltlar, gayka va boshqa mahsulotlarni yasash, har xil hajmdagi konteynerlar, drenaj romlar va payvandlash usuli bilan detallarni ta’mirlash vazifalarini uddalashmoqda. 2021 yildan shu kunga qadar 15,2 milliard so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Joriy yilda uchastkani yanada kengaytirish choralari ko‘rilayapti. Bu, hech shubhasiz, chekka hududda istiqomat qilayotgan sarimoyliklar uchun navbatdagi g‘amxo‘rlikdan dalolatdir.

Sanoatda ratsionalizatorlik g‘oyalarisiz ish unumdorligini oshirish, mahsulot tannarxini kamaytirish, umuman olganda kelajakni tasavvur qilish qiyin. Quvonarlisi, yoshlar bu yo‘nalishda faol ishtirok etayotir. Yosh kadrlar tomonidan gidrometallurgiya zavodlarining KSP-24 spirallari uchun eskirgan konveyyer lentalarida futerovkalar tayyorlanadigan, ish unumdorligi yuqori dastgoh ishlab chiqildi va ishga tadbiq etildi. Ilgari dasttgohlar uchun klinlar qo‘l mehnati bilan tayyorlangan bo‘lib, hozirgi kunda ushbu detalni jilvirlash dastgohida tayyorlash moslamasi ixtiro qilingan. Bu esa qo‘l mehnatini kamaytirib, samaradorlikni oshiryapti. Zavodda shunga o‘xshash ratsionalizatorlik takliflarining ishlab chiqarishga joriy etilayotganligiga ko‘plab misollar keltirish mumkin. Kelgusida ham bu yo‘nalishda ishlar olib borilishiga ishonchimiz komil va jamoaning bunga salohiyati yetarli.

Zavodning yutuq va muvaffaqiyatlari ortida, shubhasiz, o‘z ishiga sidqidildan yondashadigan, fidoyi mehnat jamoasining hissasi beqiyos. Kombinat rahbariyati va mutaxassislari bilan hamkorlikda bir necha istiqbolli rejalarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan. Jumladan, zamon talablaridan kelib chiqib, metallarga lazer orqali ishlov berish dastgohlarini yo‘lga qo‘yish, zavod hududida barcha gaz-olov ishlariga quvurlar orqali kislorod yetkazib berishni loyihalashtirib, uni ishlab chiqarishga tadbiq qilish ustida ishlar olib borilmoqda.

Bundan tashqari, eskirgan avtoshinalarni qayta ishlash va utilizatsiya qilish bo‘yicha loyiha hujjatlari ishlab chiqilgan bo‘lib, ushbu loyiha orqali Markaziy kon boshqarmasi bo‘linmalaridan chiqqan yaroqsiz shinalarni qayta ishlab, piroliz suyuqligi va metallom olish yo‘lga qo‘yiladi. Natijada chiqindini qayta ishlash, undan tayyor mahsulot olish hamda qo‘shimcha ish o‘rni yaratilishiga erishiladi.

**Dildora KARIMOVA.**

# KONSTRUKTORLIK

## Mahsulotning g‘oyadan boshlab chizmalarda mukammal holatigacha bo‘lgan jarayon

**Konstruktorlik kasbi noyob kasb deyishimiz mumkin. Boisi jamiyatimizda bu kasb kam uchraydi. Bugungi kunda oliy o‘quv yurtlarimizda konstruktorlar tayyorlaydigan yo‘nalishlar mavjud emas.**

Markaziy konstruktorlik byurosi “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati bo‘linmalarida mehnat qilayotgan konstruktorlarga metodik rahbarlik qiladi. Ishimiz mazmuni shunday: birinchi navbatda har bir mashina va mexanizmning chizmalarini yaratamiz, uning qanchalik mustahkamligi va puxtaligini tahlil qilamiz, shunga asosan vazifa va yo‘nalishlarimizni pishiq-puxta belgilab olamiz. Bu ishlarni ro‘yobga chiqarishda, albatta, muhandis-konstruktorlarning bilimi, zehni va tasavvur qobiliyati kerak bo‘ladi. Shu asosda, ya’ni, har bir loyihani g‘oyadan boshlab, uni mukammal va tayyor mashina holatigacha bo‘lgan jarayonni chizmalarda aks ettiramiz.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, konstruktorlik ishi g‘oyalardan boshlanadi. Mana shu g‘oyalar asosida uskuna yoki jihoz chizmasi yaratiladi. Uning aniq asoslar bilan ishlab chiqarishga tayyor holatga keltirib, tatbiq etilishigacha bo‘lgan vazifani biz, konstruktorlar bajaramiz. Navoiy kon-metallurgiya kombinatida bu ishlarni o‘z vaqtida amalga oshirishga byuro jamoasi mas’uldir. Bugun safimizda shunday ishchi-xodim va mutaxassislar borki, ular o‘z kasbining haqiqiy bilimdoni, fidoiylari hisoblanishadi va hamkasblarimiz yaratayotgan yangiliklar korxonamiz ravnaqiga xizmat qilmoqda.

Markaziy konstruktorlik byurosi jamoasi o‘z vazifalaridan kelib chiqib, so‘nggi yillarda ishlab chiqarishda mahalliylashtirish dasturlari va investitsiya loyihalari, yo‘l xaritalari asosida ko‘plab loyihalarni bajarib, amaliyotga tadbiq etib kelmoqda. Aniq misollarga keladigan bo‘lsak, 3-, 5- va 7-gidrometallurgiya zavodlari, “Muruntov” koni quvvatlarini kengaytirish bo‘yicha olib borilayotgan loyihalarga katta hissa qo‘shmoqda. Quvvatlarni oshirishda byuromiz mutaxassislari tomonidan yaratilgan “Magistral konveyyer”, “Filtr-press”, “Quyiltirgich” kabi har xil turdagi nostandart jihozlar asosiy o‘rin tutadi.

Jamoamiz bilan ko‘plab turdagi jihozlarning konstruktorlik hujjatlarini yaratishga erishdik. Har xil turdagi konveyyerlar, quyultirgichlar, tegirmonlar, ekskavator jihozlari, nasoslar, groxotlar, gidrosiklonlar, fotomashinalar va oltin ishlab chiqarish texnologiyasiga zarur boshqa jihozlar bunga misoldir. Bu boradagi ratsionalizatorlik ishlanmalari va innovatsion takliflarimizga O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining patentlarini olishga muvaffaq bo‘ldik.

“MMS70x23” rusumli tegirmon qopqog‘i futerovkasiga FAP 01001 raqamli patent, “S-50” rusumli quyultirgichni modernizatsiya qilishga olingan FAP 01379 raqamli patent, “DShZ 1300-300” rusumli shnekli tishli maydalagichning tishlari uchun FAP 00934 raqamli patent, shuningdek, boshqa ishlanmalarga olingan patentlarni misol qilib keltirish mumkin. Bu patentlar asosida tayyorlangan yangi detal va texnologik jihozlar kombinat bo‘linmalarida keng qo‘llanilib iqtisodiy jihatdan foyda keltirayotgani ayni haqiqatdir.

Shiddat bilan o‘zgarib borayotgan bugungi murakkab davrda o‘z xizmat muddatini bajarib bo‘lgan uskuna va jihozlarni zudlik bilan yangisiga almashtirish g‘oyalarini qisqa vaqtda ishlab chiqarishga qo‘llashda bilimli va fidoiy muhandis-konstruktorlarimiz ko‘magi har tomonlama qo‘l kelmoqda.

Konstruktorlik hujjatlarini ishlab chiqish jarayonida zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan ichki va xalqaro me’yoriy hujjatlarga mos ravishda keng foydalanish bugungi kun talabidir. Shu bois, har bir konstruktorlik hujjatlarini mukammal ishlab chiqishda ularning yangi, sifatli, iqtisodiy foyda keltiradigan bo‘lishi hamda professional darajada amaliyotga joriy qilinishi mumkinligiga alohida e’tibor qaratayapmiz.

Kombinatda yosh konstruktorlar, mutaxassislarning me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini oshirish uchun byuromizda qisqa muddatli malaka oshirish kurslari ham tashkil etilgan. Byuromiz 18 nafar ishchi-xodimdan iborat va texnologik jihozlar, nostandart jihozlar, kon jihozlari va ishlab chiqarish ishlarini loyihalashtirish guruhlaridan tashkil topgan.

Jamoamiz orasida o‘z mehnati bilan boshqalarga o‘rnak bo‘lib kelayotganlar ko‘plab topiladi. Ularning mehnati kombinat rahbariyati tomonidan doimiy o‘z rag‘batini topib kelayapti. To‘rt nafar hamkasbimiz turli darajadagi “Konchilik shuhrati” ko‘krak nishoni va Faxriy yorliqlar bilan taqdirlangani buning isbotidir.

Bugun oldimizda ulkan vazifalar turibdi. Bu, zimmamizga ulkan mas’uliyat yuklaydi. Kelgusida iqtisodiy foyda keltiradigan, mahalliylashtirish dasturi doirasida import mahsulotlar o‘rnini bosadigan yirik loyihalarni amalga oshirishni rejalashtirganmiz va bu yo‘lda davom etaveramiz.

**Abdurashid SULTONOV,**
**Markaziy konstruktorlik byurosi boshlig‘i.**

■ Matbuot anjumani

# KUN TARTIBIDA – MAHALLIYLASHTIRISH MAVZUSI

**Navoiy kon-metallurgiya kombinati matbuot anjumanlari o‘tkazish zalida ommaviy axborot vositalari vakillari va jurnalistlar uchun navbatdagi matbuot anjumani bo‘lib o‘tdi. Nazarimda bu tadbir oldingilariga qaraganda ancha qiziqarli, ta’sirchan ruhda o‘tdi.**





Matbuot tadbirida “Navoiy KMK” AJ Mahalliylashtirish, ehtiyojlarni rejalashtirish va zaxiralarni boshqarish boshqarmasi boshlig‘i Yelena Danilina, Mahalliylashtirish dasturlarini shakllantirish va monitoring qilish bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari Fehruz Mardonov va Navoiy mashinasozlik zavodi bo‘lim boshlig‘i Baxtiyor Tashbulatovlar kun tartibiga doir ma’ruzalari bilan ishtirok etdi.

“Mahalliylashtirish dasturi ijrosi: yutuq va rejalar” mavzusida o‘tgan anjumanda ishtirokchilarga kombinatda ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan ishlar, qo‘lga kiritilgan muvaffaqiyatlar va kelgusi rejalar haqida batafsil ma’lumot berildi.

– Kombinat va ommaviy axborot vositalari o‘rtasida faol hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Buning natijasida korxonaga taalluqli har bir yangilik o‘z vaqtida, tezkor yoritilmoqda. Matbuot xizmati tashabbusi bilan tashkil etilayotgan tadbirlar mavzuni chuqur o‘zlashtirish, kombinat yutuqlari haqida o‘z vaqtida xabardor bo‘lishimizga yaqindan yordam bermoqda, – deydi “Pravda Vostoka” gazetasi viloyat muxbiri Dilfuza Gulyamova. – Kombinat faoliyatida mahalliylashtirilgan va import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish katta ahamiyatga ega. Bu xususda bizga doimiy axborot berib boriladi. Eng muhimi, bugungi tadbirdan hamkasblarimiz ancha ma’lumotga ega bo‘ldi.

Ma’lumki, 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish strategiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri – ishlab chiqarishni mahalliylashtirishni rag‘batlantirishni davom ettirish hamda ehtiyot va butlovchi buyumlar importining o‘rnini bosish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish hisoblanadi.

– 2030-yilgacha kombinatni barqaror rivojlantirish dasturi doirasida yangi loyihalarni ishga tushirish va amaldagilarni kengaytirish hisobiga 2025-yilda 185 ta loyiha doirasida 1 trillion so‘mlik mahsulot ishlab chiqarish, mahalliylashtirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmini 2024-yilga nisbatan 113 foizga oshirish ko‘zda tutilgan, – deydi Mahalliylashtirish dasturlarini shakllantirish va monitoring qilish bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari Fexruz Mardonov. – Dasturga kiritilgan loyihalarning mahalliylashtirish darajasini o‘rtacha 65 foizga ko‘tarish rejalashtirilgan. Mahalliylashtirilgan mahsulotlar tannarxida import qilinayotgan mahsulotlarni (asosan metall prokati) yirik tarmoq va mahalliy korxonalar quvvatlarida o‘zlashtirish maqsad qilingan.

Ta’kidlash kerakki, kombinatda mahalliylashtirish dasturi 2000-yildan buyon amalga oshirilib kelinmoqda. Yigirma to‘rt yilda kombinatda juda katta loyihalar ro‘yobga chiqarildi. Kombinatning ishlab chiqarish ehtiyoji uchun so‘nggi uch yilda 1,6 trillion so‘mlik mahalliylashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarilgani, tarmoqlararo kooperatsiya doirasida esa 14,2 trillion so‘mlik sanoat mahsulotlari xarid qilingani buning isbotidir.

Korxona jamoasining bu yilgi rejalari yanada ulkan. Xususan, 2024-yilda ham mahalliylashtirish dasturi asosida kombinatda 183 ta loyiha doirasida 905 milliard so‘mlik mahsulot ishlab chiqarish rejalashtirilgan. Joriy yilning yanvar-avgust oylarida 177 ta loyiha bo‘yicha 620 milliard so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 142,4 foizni tashkil etdi.

Bundan tashqari, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida joriy yilning yanvar-avgust oylarida tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasi doirasida ulardan import o‘rnini bosuvchi 4,4 trillion so‘mlik mahsulotlar xarid qilinib, 2023-yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 122,6 foizni tashkil etdi.

Respublikamizda birinchi bo‘lib Navoiy kon-metallurgiya kombinatida joriy etilgan “shatakka olish” mexanizmi doirasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Mahalliy korxonalarni texnologik qo‘llab-quvvatlash orqali so‘nggi uch yilda hamkorlikda 1,4 ming turdan ziyod 1,4 trillion so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, kombinat ishlab chiqarish jarayonlariga jalb etildi.

– Mazkur yo‘nalishda erishilayotgan natijalarda, albatta, Navoiy mashinasozlik zavodi jamoasining hissasi beqiyos. Bugungi kunda zavodda yiliga qariyb 15 ming turdagi 1,2 trillion so‘mlik mahsulot tayyorlanmoqda. Korxonada ishlab chiqarilayotgan 97 foiz mahsulot Navoiy kon-metallurgiya kombinati bo‘linmalari uchun mo‘ljallangan. So‘nggi yilda korxonada sharli tegirmonlar, gidrosiklon qurilmalari, texnologik quyiltirgichlar, universal tokarlik va frezali dastgohlar, reduktorlar, nasoslar kabi import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar o‘zlashtirildi. Ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash va modernizatsiya qilish yangi istiqbollarni yaratmoqda. Jamoamiz bilan yangi loyihalarni yaratish, yangi mahsulot turlarini o‘zlashtirish va shu bilan kombinat rivojiga hissa qo‘shishda davom etaveramiz, – deydi Navoiy mashinasozlik zavodi bo‘lim boshlig‘i Baxtiyor Tashbulatov.

Tadbirda OAV vakillari va jurnalistlarning savollariga atroflicha javoblar berildi.

**Dildora TO‘LQINOVA.**

■ Janubiy kon boshqarmasi va “Sobirsoy”geotexnologik konining 60 yilligiga

# HAYRAT NUQTASI

**Janubiy kon boshqarmasi “Marjonbuloq” koni qulay geografik va iqtisodiy sharoitga ega G‘allaorol tumanida joylashgan.**

G‘allaorol zamini asosan lalmikor yerlardan iborat bo‘lib, yerosti qimmatbaho metallarga boy. “Marjonbuloq” koni mamlaktimizga sifatli oltin yetkazib berayotgan bo‘lsa, “Qo‘ytosh” konidan volfram metali qazib olinmoqda.

Marjonbuloq shahri – “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati tizimidagi korxonalarda ishlovchi ko‘plab konchilar istiqomat qilayotgan, kundan – kunga chiroy ochib borayotgan zamonaviy maskandir. Nurota tog‘ tizmasining G‘o‘bdintog‘ hududlarida oltin konining paydo bo‘lishi bevosita buyuk davlat arbobi, ulug‘ adib, o‘zbek xalqining fidoyi farzandi Sharof Rashidov nomi bilan bog‘liq. 1955-1975-yillar mobaynida olib borilgan geologik-qidiruv ishlari natijasida bu yerlarda istiqbolli oltin zaxiralari borligi aniqlangach, Sharof Rashidov hududda sanoatni jadal rivojlantirish va oltin zaxiralarini o‘zlashtirish uchun “Marjonbuloq” koni va Marjonbuloq shahrini bunyod etishga asos solgan. Shundan buyon ushbu zaminda sanoat rivojlandi, ko‘plab konchilar, metallurglar, geologu marksheyderlar yetishib chiqdi. Soha rivojiga munosib hissa qo‘shgan sanoat xodimlari avlodi shakllandi.

2002-yilda kon tarixida iz qoldirgan voqea ro‘y berdi. Hukumatimiz qarori bilan “Marjonbuloq” va “Zarmitan” konlari Navoiy kon-metallurgiya kombinati tarkibiga o‘tkazildi. Ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalar joriy etildi, mutaxassislar malakasi oshirildi. “Marjonbuloq” oltin koni jamoasi davlatimiz xazinasi uchun muhim mahsulot – oltin ishlab chiqarishda belgilangan rejalarni bajarib kelayapti. “Marjonbuloq” koni negizida oltin boyitish sexi faoliyat yuritib kelmoqda. 234 nafar kishi mehnat qilayotgan mazkur sexda “Marjonbuloq” oltin konidan qazib olingan ma’danlar qayta ishlanadi.



- Seximizda 2023-yilda oltin ajratib olish va ma’danni qayta ishlash rejasi ortig‘i bilan uddalandi, - dedi sex boshlig‘i Elyor Rustamov. – Innovatsion rivojlantirishga e’tibor berilayotganligi, texnologik jarayonda ishlatilayotgan reagentlar va asbob-uskunalarning o‘zimizda ishlab chiqarilayotganligi bois import mahsulotlarga bo‘lgan ehtiyoj kamaydi. Oxirgi o‘n yilda innovatsion ishlanmalarning muvaffaqiyatli qo‘llanilishi korxonamiz samaradorligini 7 martaga oshirdi.

Ishlab chiqarishda ekologik muvozanatni saqlab turishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Quritish va kuydirish jarayonlarida havoga chiqayotgan changlarning miqdorini kamaytirish borasida Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti olimlari bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan changni tutib oluvchi skrubberdan foydalanish yaxshi natija beryapti.

Sexning bir maromda ishlashi ma’danning o‘z vaqtida yetkazib berilishiga bog‘liq.

- Ishlab chiqarishda shunday maromni ta’minlash uchun konning moddiy-texnika bazasi mustahkamlanmoqda, - dedi “Marjonbuloq” koni muhandisi Javlon Jabborov. – Jumladan, 2020-yilda 10 ta “BelAZ” avtoag‘dargichi, 2 ta “Isuzi” avtobusi, 2 ta ekskavator va turli transport vositalari keltirilgani ish unumdorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beryapti.

Kon ekskavator mashinisti Muhammadqul Mamarasulovni suhbatga tortdik.

- Salkam 25 yil bo‘ldi shu konda ishlayotganimga, - dedi mashinist. – Changto‘zon va yozning jaziramasi, qishning qahratonida mineral toshlarni maydalash – bu har kim ham uddalay oladigan mashg‘ulot emas. Shuning uchun ba’zilar bu kasbni tanlashda cho‘chiydi. Nolimayman, konda ishlab kam bo‘lganim yo‘q. Ro‘zg‘orim obod, egnimiz but, qozonimiz qaynab turibdi. Mashaqqatli mehnatimizga yarasha maoshlarimizni o‘z vaqtida berib turishibdi.

Bir so‘z bilan aytganda, “Marjonbuloq” konida tunu kun faoliyat yuritib, davlat xazinasiga o‘z ulushlarini qo‘shayotgan 1 ming 200 nafarga yaqin konchilarning har bir kuni fidokorona mehnat bilan o‘tayapti. Ularning kelgusidagi rejalari ulug‘. Jamoa ana shu rejalarni ro‘yobga chiqarish yo‘lida astoydil izlanayapti.

**Mansur HUSANOV.**

**“Navoiyuran” davlat korxonasi “Nurobod” ishlab chiqarish maydoniga qarashli “Sobirsoy” geotexnologik konida erishilayotgan barcha yutuqlar, amalga oshirilgan keng ko‘lamli ishlarda sharafli kasb egalari, turli soha vakillarining matonatli mehnati mujassam. Bunda, kon tizimida ishlab ketgan va hozirda mehnat qilayotgan yuzlab soha fidoyilarining hissasi beqiyos.**

# YUKSAK UYUSHQOQLIK – YUTUQLAR GAROVI

Bugungi kunda yosh mutaxassis va ishchi-xodimlardan iborat “Sobirsoy” geotexnologik koni jamoasi orasida ishiga mas’uliyatli yondashuvi va kasbiga sodiqligi bilan hurmat qozongan insonlar talaygina. Ular orasida kon bosh muhandisi, III darajali «Konchilik shuhrati” ko‘krak nishoni sohibi Jamol Arapov ham bor.

U 1987-yili konchilar shahri Uchquduqda tavallud topdi. 1991-yili oilasi bilan Nurobod shahriga ko‘chib kelgan qahramonimiz umrining 44 yilini konchilik sohasiga bag‘ishlagan otasi yonida yurib, ushbu sohaga bolaligidan mehr qo‘ydi. 2010-yilda Navoiy davlat konchilik institutini konchilik ishi mutaxassisligi bo‘yicha tamomladi. Mehnat faoliyatini Janubiy kon boshqarmasiga qarashli “Sobirsoy” konida geotexnologik quvurlar operatori sifatida boshladi. Jamol Arapov tirishqoqligi bilan qisqa fursatda rahbariyat e’tiboriga tushdi, kon gidrogeologi, kon geologiya byurosi muhandis-texnologi vazifalarida ishladi. 2017-yilda unga kon bosh muhandisi lavozimi ishonib topshirildi. J.Arapov yosh bo‘lishiga qaramasdan bor kuch-g‘ayrati, bilimini tanlagan sharafli kasbiga bag‘ishlab, yuklatilgan ma’suliyatli vazifani bajarishda o‘zini har jihatdan bilimli mutaxassis sifatida namoyon etdi. Belgilangan ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini o‘z vaqtida bajarish uchun jamoa ishini to‘g‘ri tashkil etadigan, tezkor, aniq ishlab chiqarish qarorlarini qabul qila oladigan yosh rahbar sifatida shakllandi.



– Bugungi kunda “Sobirsoy” geotexnologik konida 760 nafardan ortiq muhandis-texnik va ishchi-xodimlar mehnat qilishadi, – deydi Jamol Arapov.- Kon tasarrufida 3 ta geotexnologik uchastka, geotexnologik quduqlarni burg‘ilash, qurish va ta’mirlash, geofizik izlanishlar, unumdor eritmalarni qayta ishlash, texnologik nasoslarni ta’mirlash va montaj qilish, tarmoqlar va podstansiyalar uchastkalari, mexanik-ta’mirlash ustaxonasi faoliyat ko‘rsatmoqda. Hozirda 12 ta burg‘ilash brigadasi tomonidan “Sharqiy Ag‘ron”, “Sobirsoy”, “Arnasoy”, “Ingichka” dala maydonlarida texnologik burg‘ilash ishlari olib borilyapti. Joriy yilda 2 ta yangi “Krantas” burg‘ilash qurilmasi ishga tushirildi, yaqin kunlarda yana 3 ta kelishi kutilmoqda. “Arnasoy” istiqbolli maydonida tajriba-sanoat ishlari hamda “Tuvaqtov”, “Saxoba”, “Markaziy Chordara” konlarida geologiya-qidiruv ishlari amalga oshirilyapti.

Bugun “Navoiyuran” DK rahbariyati boshchiligida maqsadli dasturlar asosida ishlab chiqarish obyektlarini texnik modernizatsiya qilish va qayta jihozlash, ishlab chiqarishni yangilash, istiqbolda yangi ishlab chiqarish inshootlarini barpo etish, asosiy ishlab chiqarishning texnik holatini saqlab qolish uchun mo‘ljallangan mahalliylashtirilgan mahsulotlar turlarini ko‘paytirish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Buday ishlar zamirida nafaqat ishlab chiqarishning barqarorligi, o‘sish sur’atini amalga oshirish, balki, avvalo, korxona xodimlari va ular oilalarining farovonligini ta’minlash maqsadi ham borligi jamoa ahlining turmush sharoiti, hayot tarzida o‘zining isbotini topmoqda.

– Olib borilayotgan keng ko‘lamli ishlarda, berilgan topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarilishida jamoamiz har bir a’zosining munosib ulushi bor. Sharafli vazifalarni bajarishda bosh mutaxassislar va uchastka boshliqlari N.Yusupov, J.Ro‘ziyev, U.Shodiyev, Sh.Do‘stmuradov, X.Toshboyev, Z.Azimov, K.Ro‘ziyev, S.Xaqberdiyev, ishchi-xodimlar K.Bobanov, B.Batirov, A.Arapov, G‘.Omonov, S.Primov, O.Otayorov, B.Normurodov, Sh.Xoliqulov, R.Ruzimuradov, A.Jo‘rayev, S.Xidirovlar va yana ko‘plab jamoadoshlarimizning alohida mehnati mujassam, – deya so‘zida davom etadi Jamol Arapov.

– Konchilik sohasidagi ustozlarim – ko‘p yillar “Sobirsoy” koniga rahbarlik qilgan Abduraxim Norboyev, tajribali mutaxassislar Isomiddin Ataqulov, Valeriy Babayev, Ne’mat Yusupov, Olga Nazarovalardan juda minnatdorman.

**Nafisa SAGATBAYEVA**
**“Zafarobod” KB muhandisi.**

■ Tahlil va taqqos

# INNOVATSIYA – TEXNOLOGIYA TRANSFERI

**“Innovatsiya” so‘zi muomilaga ko‘pchilik uchun notanish tushuncha, yangi bir atama sifatida kirib keldi. Bizning nazarimizda g‘arbda mavjud innovatsiyani o‘zlashtirish ham innovatsiya tarzida talqin etila boshladi. Lekin, bu - texnologiya transferi sifatida til lug‘atimizni boyitdi. Ko‘p o‘tmay – Yangi O‘zbekiston islohotlari avvalida rivojlana boshlagan zamonaviy texologiyalar va bilimlar sabab bugun “innovatsiya” asosiy so‘zlardan biriga aylandi.**

## YANGI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH YO‘LIDA

So‘nggi yillarda Prezidentimiz va hukumatimizning innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tadbiq etishga qaratilgan qator me’yoriy hujjatlari qabul qilinganligi “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati uchun ham juda katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

2018-yilda kombinat tasarrufida tashkil etilgan Yangi texnologiyalarni joriy etish innovatsion markazi qisqa davr mobaynida yaxshi natijalarga erishmoqda. Korxonamizda hozirgi kunda 8 nafar fan doktori va 18 nafar fan nomzodi faoliyat ko‘rsatayapti. So‘nggi o‘n yilda yuksak ilmiy salohiyatiga ega kombinat mutaxassislari tomonidan yaratilgan 37 ta ixtiro patent bilan himoyalandi. Jumladan, 34 tasi O‘zbekiston Respublikasi, ikkitasi Shveysariya va Germaniyadagi Patent kooperatsiya to‘g‘risidagi shartnoma bo‘yicha xalqaro patent, yana biri Rossiyaning Intellektual mulk federal xizmati talabnomasiga muvofiq bajarildi.

Kombinatimiz mutaxassislari 2017-yilda konchilik sanoati tarixida ilk bor “Oltinmishyakli, ishlanishi qiyin bo‘lgan sulfidli rudalardan oltin ajratish usuli” mavzusidagi ixtirosi uchun BMT huzuridagi Butunjahon intellektual mulk tashkilotining “Oltin medali” bilan taqdirlandilar.

Prezidentimizning 2022-yilning 12-dekabrida imzolangan “O‘zbekiston Respublikasining fan va texnika, adabiyot, san’at va me’morchilik sohasidagi Davlat mukofotlarini berish to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq, “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining bir qator olim va mutaxassislari “Texnologik va ishlanishi murakkab bo‘lgan oltin tarkibli ma’danlarni qayta ishlash va o‘zlashtirishning kompleks texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish” bo‘yicha ilmiy-amaliy ishlanmasi uchun fan va texnika sohasidagi birinchi darajali Davlat mukofoti bilan taqdirlangani tarixiy voqelik bo‘ldi.

## ILMIY ISHLANMALAR VA RATSIONALIZATORLIK TAKLIFLAR SONI ORTMOQDA

Kombinatimiz ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga investitsiyalar hajmi, shuningdek, faoliyatga kiritilgan istiqbolli ishlanmalar va ratsionalizatorlik takliflari soni bo‘yicha respublikada yetakchi hisoblanadi. Bizda ilmiy va ilmiy-texnikaviy ishlanmalarni tijoratlashtirish bo‘yicha katta tajriba to‘plangan.

Bugungi kunda jamiyat rivojlanishning yangi modelini izlamoqda. Bu nihoyatda murakkab jarayon. Ratsionalizatorlik faoliyati tajribasi, uning ichki iqtisodiyot doirasidagi o‘rni va ahamiyati mamlakat iqtisodiy hayotida davom etayotgan o‘zgarishlar qanchalik qiyin ekanligini yaxshiroq tushunishga imkon beradi. Ratsionalizatsiya bu – “korxona va tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish, uning samaradorligini oshirishga qaratilgan yangi texnik yechimlar” hisoblanadi. Ratsionalizatorlik takliflari – mazmuni va miqyosi jihatidan xilma-xil bo‘lib, xodimlarning individual xususiyatlari, ularning lavozimi yoki kasbiy ixtisosligidan qat’iy nazar, ta’lim darajasidan kelib chiqqan holda ishchi kuchining tashabbuskor mehnat innovatsiyalariga moyilligini ifodalaydi.

Kombinatda “Ratsionalizatorlik faoliyati to‘g‘risida Nizom” ishlab chiqilgan bo‘lib, joylarda tashkil etilgan ratsionalizatorlar va ixtirochilar klublari Nizom asosida ish olib boradi.

“NKMK” AJ bo‘linmalarida ixtirochilik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish tizimi, yoshlarning texnik ijodiyotini rivojlantirish dasturlari ishlab chiqilgan bo‘lib, har yili 8 ta yo‘nalish bo‘yicha “Eng yaxshi ratsionalizatorlik taklifi” tanlovi o‘tkazib kelinadi. 2018-2023-yillarda kombinat mutaxassislarining 1047 ta ratsionalizatorlik takliflari yuzasidan ijobiy qaror qabul qilinib, ishlab chiqarishga joriy etilgan. Amaliyotga tadbiq etilgan ratsionalizatorlik takliflaridan 538,4 milliard so‘m iqtisodiy samara olingan. Birgina 2023-yildagi 243 ta ratsionalizatorlik taklifidan shu yilning o‘zida 463 milliard so‘m iqtisodiy samaradorlikka erishish kutilmoqda.



Aniq misollarga tayanadigan bo‘lsak, Markaziy kon boshqarmasidan taqdim etilgan “Ma’danni yuvish maydonchasining yuqori qatlamlarida himoya qatlamini joylashtirish” mavzusidagi taklifdan erishilgan iqtisodiy samaradorlik 15,7 milliard so‘mni, 1-gidrometallurgiya zavodidan taqdim etilgan “Qoraqo‘ton” konining ishlanishi qiyin bo‘lgan ma’danlarini qayta ishlash texnologik sxemasini takomillashtirish” mavzusidagi ratsionalizatorlik taklifidan olingan iqtisodiy samaradorlik 8,7 milliard so‘mni tashkil etgani fikrimizni tasdiqlaydi.

## OCHIQLIK VA KONSTRUKTIV HAMKORLIK SAMARASI

Innovatsion markazda yangi texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha “Ratsionalizatorlik faoliyati portali” rukni ostida yagona ma’lumotlar bazasi yaratildi. Kombinatning har bir ishchi-xodimi xohlagan paytda barcha ratsionalizatorlik takliflar, ratsionalizatorlik faoliyatiga oid me’yoriy hujjatlar, “Eng yaxshi ratsionalizatorlik taklifi” tanlovi natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan tanishish imkoniyatiga ega. Bundan tashqari Markazimizda har chorakda nashr etib borilayotgan “O‘zbekiston konchilik xabarnomasi” ilmiy-texnik jurnalida kon-metallurgiya yo‘nalishidagi ilmiy maqolalar va yangiliklar keng yoritib boriladi.

Markazda har yili ishlab chiqarishda yechilishi kerak bo‘lgan muammolar “NKMKni Innovatsion rivojlantirish dasturi”ga kiritib boriladi. Mamlakatimizdagi qator nufuzli ilmiy-tadqiqot va oliy ta’lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, Habib Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika instituti, Mineral resurslar ilmiy-tekshirish instituti, “O‘zGEORANGMETLITI” korxonasi va Rossiyaning qator oliy ta’lim, ilmiy-tekshirish institutlari bilan yaqin hamkorlik yo‘lga qo‘yilib, dasturga kiritilgan muammolar o‘z yechimini topib kelmoqda.

Innovatsion markaz tarkibidagi “Texnik kutubxona” kombinat ishchi-xodimlarining texnik adabiyotlarga va bilimlarga bo‘lgan talabini qondirib keladi. Sohaga oid barcha kitob va jurnallarning elektron shakli elektron kutubxonada joylashtirilgan bo‘lib, ishchi-xodimlarga ish joylarida turib kerakli bo‘lgan adabiyotlardan foydalanish, bilim darajalarini boyitib borish imkoniyati yaratilgan.

Innovatorlar jamiyatning ijtimoiy faol bo‘g‘ini sifatida iqtisodiy jarayonlarning dinamikasini belgilaydi. Kombinat rahbariyatining ularni yangiliklar yaratish yo‘lida doimiy qo‘llab-quvvatlab kelayotgani esa kon-metallurgiya sohasining yil sayin rivojlanib borishiga salmoqli hissa bo‘lib qo‘shilayapti.

**Ulug‘bek SHARAFUTDINOV,**
**“NKMK” AJ Yangi texnologiyalarni joriy etish Innovatsion markazi boshlig‘i, professor.**

■ “Navoiyuran” davlat korxonasida

# MEMORANDUM IMZOLANDI

**Joriy yilning 23-31-avgust kunlari “Navoiyuran” DK bosh direktori Djamal Fayzullayev boshchiligidagi delegatsiya Xitoy Xalq Respublikasida bo‘ldi.**

Tashrif davomida Xitoy Xalq Respublikasi Atom energetikasi agentligi hamda Xitoy Energetika boshqarmasi rahbariyati bilan uchrashuvlar o‘tkazildi. Muloqotlar davomida ikki tomonlama hamkorlik aloqalari, jumladan 2024-yilning yanvar oyida davlatimiz rahbarining Xitoy Xalq Respublikasiga amalga oshirgan tashriflari davomida O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi hamda Xitoy Xalq Respublikasining uran yo‘nalishi bo‘yicha yirik korporatsiyalari o‘rtasida imzolangan kelishuvlar muhokama qilindi.

Tashrif davomida “Navoiyuran” DKning mutaxassislari China National Uranium Corporation (CNNC) korporatsiyasi tarkibidagi “BRICEM CNUC” (geologiya) va “BRIUG CNUC” (texnologiya) ilmiy markazlariga tashrif buyurishib, amalga oshirilayotgan loyihalar hamda tatbiq etilgan texnologiyalar bilan tanishishdi.

Xorijiy safar davomida CNNC korporatsiyasi tarkibidagi uran mahsulotini konversiya qilish va boyitish, atom elektr stansiyalari uchun yoqilg‘i ishlab chiqarish majmualari faoliyati hamda korporatsiyada qo‘llanilayotgan yangi innovatsion texnologiyalar bilan ham tanishildi. Shuningdek, korporatsiya rahbariyati bilan ushbu texnologiyalarni respublikamizda joriy qilish orqali qo‘shimcha qiymatli mahsulot yaratish borasida muzokaralar olib borildi.

Xizmat safari yakunida O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi, “Navoiyuran” DK hamda CNNC korporatsiyasi tarkibiga kiruvchi CNUC kompaniyasi bilan respublikamizda istiqbolli hududlarda geologiya-qidiruv ishlarini olib borish bo‘yicha uch tomonlama kelishuv hamda uran va boshqa foydali elementlarni qidirish hamda ajratib olish bo‘yicha Innovatsion ilmiy-texnologik markazni yaratish bo‘yicha memorandum imzolandi.

Imzolangan hujjatlar ijrosini ta’minlash maqsadida joriy yilning sentabr oyida CNNC korporatsiyasi vakillarining O‘zbekiston Respublikasiga tashrif buyurishi hamda ishlarni boshlashga kelishib olindi.

**"Navoiyuran" DK axborot xizmati.**

■ Xabar

# TEGIRMONLAR – ISHLAB CHIQARISHNING MUHIM BO‘G‘INI

**“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJda turlicha vazifalarni bajaradigan ko‘plab bo‘linmalar faoliyat yuritib kelayapti. Ular orasida kombinat boshqarmasining bosh mexanik bo‘limi korxonadagi ishlab chiqarish texnika va uskunalarining uzluksiz ishlashini ta’minlash kabi muhim yo‘nalishni muvofiqlashtiruvchi bo‘linma hisoblanadi.**

Ayni paytda gidrometallurgiya zavodlarida 122 ta asosiy va 30 ga yaqin yordamchi tegirmonlar mavjud. Ularning doimiy ravishda ish holatda bo‘lishi mazkur bo‘lim mutaxassislari nazoratida.

Gidrometallurgiya zavodlari va “Marjonbuloq” oltin ajratish sexida tegirmonlar yordamida har kuni o‘rtacha 280 ming, bir yilda qariyb 100 million tonna ma’dan qayta ishlanmoqda.

Ta’kidlash joizki, yirik o‘lchamdagi tegirmonlar, ular uchun zarur asbob-uskuna va ehtiyot qismlarning asosiy qismi mahaliylashtirilib, Navoiy mashinasozlik zavodi va kon boshqarmalari bo‘linmalarida tayyorlanmoqda. Tegirmonlarning kombinatda ishlab chiqarilishi yo‘lga qo‘yilganligi mablag‘larni iqtisod qilish imkonini bermoqda.

**“NKMK” AJ matbuot xizmati.**

■ Kombinat xotin-qizlari haqida hikoyalar

# Muruvvatli qalb sohibasi

**Ko'zlari ko'm-ko'k, sochlari tillo rang, yuzlari lo'ppi, oppoqqina Anna endigina 10 yoshga to'lganida onasining bevaqt o'limidan tushkunlikka tushdi. Uyda bir o'zi qolgan vaqtlarida xayollari uni shamol to'zonlari kabi turli tomonga boshlab ketardi. O'z uyidan halovat topmagan qizaloq maktabi tomon oshiqardi. Maktabda esa yoshligidan birga o'sib-ulg'aygan, opa-singildek bo'lib qolgan dugonalari Kseniya va Alina kutardi...**

Kunlarning birida Anna dugonasi Kseniyaning uyiga mehmonga bordi. Shunda uning otasi yo'qligini, onasi esa o'ta mehribon, pazanda, samimiy ayol ekanligini ko'rib, o'z onasining mehrini his qilgandek bo'ldi. Ikkala dugona kelishib, ota-onalarini birlashtiradigan, yagona oila bo'lishiga undashdi.

Ayol deganda eng avvalo ko'z oldimizga mehribon ona, sarishtali uy bekasi, qolaversa, o'z kasbini mukammal egallab, turmushning turli sinovlarini sabr-bardosh bilan yengayotgan sadoqatli inson keladi. Markaziy kon boshqarmasi "Muruntov" shaxtasi ichki transport uchastkasi stvolchisi Anastasiya Blogadaryova ham ana shunday ayollardan biridir. Anastasiya qizaloqlarning taklifiga ko'ra Viktor Viktorovichga turmushga chiqdi va uning qizalog'i Annaga ona bo'ldi. Anastasiya o'zining qizi Kseniya bilan Annaga mehr qo'llarini cho'zdi.



– Biz Viktor bilan turmush qurganimizga mana besh yildan ortiq vaqt o'tdi. Oilamiz tinch, qizlarimiz bir-birini hurmat qilishadi, e'zozlashadi. O'tgan yili bizning oilamizga yana bir qiz qo'shildi. Buning ham o'z tarixi bor, – deydi o'z taqdiridan mamnun qahramonimiz. – Bir kuni ikkala qizim maktabdan xomush qaytishdi. Sababini so'rasam ularning yaqin bir dugonasining tushkun ahvoli ularni tashvishga solgan ekan. Ma'lum bo'lishicha, qizlarimning yaqin dugonasi bo'lgan Alina ismli qizaloqning onasi og'ir betobligi sababli uni bolalar uyiga topshirishayotgan edi. Biz Alinaning taqdiriga ham shunchaki befarq bo'lmadik. Inson hayotidagi eng beg'ubor va baxtli damlar – bu bolalik. Oilada tinchini topolmagan bolalarning bolaligi yo'qolgani achinarli. Lekin tinch va farovon yurtda ota-ona mehriga zor ulg'ayayotgan bolalarning aybi nimada? Viktor ham kombinat sohasida ishlaydi. Ikkalamizning ham tayinli ishimiz bor, ro'zg'orimiz to'kin. Ikkalamizning oylik maoshlarimiz bemalol oilamizga yetadi. Shularni o'ylab, yana bir qizni o'zimizning vasiylikka olishga qaror qildik. Uchala qizimiz ham tengdosh. Ularni bir-biridan ajratmagan holda mehr-muhabbat ko'rsatishga harakat qilaman. Axir men ular uchun onaman. Ona mehriga zor qizlarning ko'ngliga qanday ozor berishim mumkin.

Anastasiyaning mehridaryo ayol ekanligini uning faqat aytayotgan so'zlaridan emas, balki mehr nuri balqib turgan gulgun chehrasi-yu, suhbatimiz davomida necha bor ko'zlariga yosh aylanganidan ham bilish mumkin. Yoshligida oilasida yolg'iz farzand bo'lib voyaga yetgan qahramonimiz katta oilalarga havas qilgan.

– Otam Anatoliy Chumak Rossiya Federatsiyasi Sankt-Peterburg shahridan, onam esa Qirg'iziston Respublikasi O'sh viloyatidan. Ikkalasi O'zbekistonga, ya'ni Zarafshon shahriga ishga kelishgan va 1986-yilda turmush qurishgan. Otam butun umr oshpaz, onam esa bolalar shifokori bo'lib ishlagan. Oilada yolg'iz farzand bo'lganman. Opa-singil, aka-ukalarim ko'p bo'lishini xohlardim. Otam menga doim mazali taomlar, pishiriqlar, turli ichimliklar tayyorlab berardi. Ayniqsa, dadam tayyorlagan shirin kulcha va borshlarning ta'mi o'zgacha edi. Dadam uyda biror nima pishirayotgan vaqtida doimo yonida turib o'rganishga harakat qilardim. Shu sababli pishirgan taomlarimni qizlarim va xo'jayinim doimo maqtab iste'mol qilishadi, – deydi Anastasiya.

2006-yilda Zarafshon Tibbiyot kollejini tugatgandan so'ng, Markaziy kon boshqarmasi 3-Tibbiy-sanitariya qismida laborant bo'lib ilk ish faoliyatini boshlagan qahramonimiz 2012-yildan boshlab "Muruntog'" shaxtasining Ma'muriy-maishiy kombinati ishlab chiqarish hammomi ishchisi, undan so'ng farrosh bo'lib oilasiga halol rizq olib kirgan. 2017-yildan boshlab esa stvolchi bo'lib ishlab kelmoqda. Anastasiya Anatolevnaning kon boshqarmasi tizimida faoliyat olib borayotganiga ham mana o'n sakkiz yildan ortiq vaqt o'tibdi.

– Axir dunyoda oson ishning o'zi yo'q, har bir yumushning og'iri, mashaqqati bor, – deydi Anastasiya. – "Muruntog'" shaxtasida ishlash insondan katta matonat talab qiladi. Yillar davomida ko'p qiyinchiliklar ko'rdim. Stvolchidan birinchi talab etiladigan narsa bu – sezgirlik. Har bir chalingan ogohlantiruvchi signallarni bee'tibor qoldirmaslik. Ishchi-xodimlar va yuklarni 600 metr chuqurlikka tushirish hamda chiqarish katta jasorat talab etadi. Berilayotgan signallarga qarab liftlarning to'xtash joylarini aniqlab olamiz. Ertalab smena qabul qilganimizdan so'ng ishchilarni shaxtaga tushirishdan oldin ularning har biriga jeton beriladi. Ish vaqti tugagandan so'ng ishchilar pastdan yuqoriga chiqariladi va berilgan jetonlar qaytarib olinadi. Agar jetonlar soni kam bo'lsa kim pastda qolgani aniqlanadi va tezda chorasi ko'riladi. Har bir kasbning o'ziga yarasha qiyinchiligi, mas'uliyati bo'ladi. Shunga qaramasdan, qanoat qilib, ishimni sevib, astoydil mehnat qilaman. Bugungi kunda shaxtamizda oyliklar yaxshi, eng muhimi, maoshimizni o'z vaqtida olamiz. Jamoamiz turli millat vakillaridan iborat bo'lib, yosh mutaxassis kadrlar ko'pchilikni tashkil etadi. Ularning ishlashi va dam olishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Yosh kadrlarga doim shunday deb nasihat beraman: astoydil mehnat qilsalaring, shunda daromadning o'zi keladi.

Tinib-tinchimas Anastasiya asosiy ishidan bo'sh vaqtlarida bir qancha yo'nalishlar bo'yicha kechki kurslarda ham ta'lim olgan. U bir nechta ishni uddalab keta oladigan qo'ligul ayollardan. Shunga qaramay, hech qachon shaxtadan ketishni, boshqa joyda ishlashni xayoliga keltirmadi. Doim "daraxt bir joyda ko'karadi", degan naqlga amal qiladi. Hozir ham ba'zan ish ko'pligidan tushlik qilishga vaqti bo'lmaydi. Qurilmaga qarab turish asnosida ovqatlanadigan vaqtlari ham bo'ladi. Konda issiq pechkalar oldida turib og'ir ish qiladigan, katta-katta yuklarni ko'taradigan ayollarni ko'radi. Qahramonimizning aytishicha, hech birlari ishidan nolimaydi. Aksincha, zavq bilan ishlaydi. Uzoq yillar davomida bir oiladek bo'lib ketgan shaxtadagi ayollar o'zaro sirdosh. Qiyin kunlarda doim bir-birini qo'llab-quvvatlaydi, kuch va dalda beradi.

Har bir insonning o'z hayot yo'li bo'ladi. U dunyoga kelganidan so'ng o'sib - ulg'ayadi, kamol topadi. Yetarli darajada aql - zakovat egasi bo'lganidan so'ng esa o'z imkoniyatlariga loyiq tarzda kasb-kor tanlaydi. Qahramonimiz Anastasiyaning ham o'ziga yarasha hayot yo'li, shirin oilasi va mashaqqatli bo'lsada tanlagan ishi borligi uchun ham hamisha o'zini baxtli his etadi.

**Aziza IRISOVA,**
**jurnalist.**

# Maqsad yuksak bo'lsa

**Ayollar chehrasiga boqib, yillar ozoriga bardosh bergan, umrini kasbiga bag'ishlab, mehnatidan qadr topgan insonlar ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Bugungi kunda ular nafaqat oilada, balki mamlakatimizning barcha korxona, ishlab chiqarish tarmoqlari samaradorligini oshirishga halol va kamtarona mehnati bilan hissa qo'shmoqda. Ayol oqila-yu fozila, nur va ziyo ulashgani vaqt topayotgan muallima va murabbiy, olima va san'atkor, sog'uvchi va tikuvchi, paxtakor va chorvador, ishchi va rahbar... "NKMK" AJning Navoiy mashinasozlik zavodi tokari Nargiza Ergasheva shular jumlasidandir.**



Nargiza maktabni tugatib, ish faoliyatini 2006-yilda Navoiy mashinasozlik zavodida boshlab, dastlab ishlab chiqarish xonalari, keyinchalik mexanik-yig'uv sexi farroshi bo'lib ishladi. Ishga bo'lgan munosabati bilan rahbarlar nazariga tushib, ularning maslahatlari bilan zavod o'quv markazida o'qib, tokarlik kasbini egalladi va ayni vaqtda sexning mexanika uchastkasida tokar bo'lib ishlab kelmoqda.

– Kasbimni sevaman, sexda farrosh bo'lib ishlab yurgan kezlarimda stanoklarda ishlayotgan ishchilarimizga havasim kelardi. Zavod o'quv markazida 5 oy tokarlik yo'nalishida o'qib, hunar egasi bo'ldim va Ravshan aka Shodmonovga shogird tushdim. Besh oydan so'ng esa mustaqil ish boshladim. Shukur, niyatimga yetdim, hozir "1A 616" markali stanokda ishlayapman. Stanokda 616 mm hajmgacha detalni yo'nish mumkin. Stanokda ishlashda xavfsizlik texnikasiga qat'iy rioya qilish kerak, aks holda noxush holatlar ro'y berishi mumkin. Biz stanoklarning ishlash prinsipi, keng tarqalgan universal qurilmalarning nomi, ulardan foydalanish, nazorat va o'lchash vositasining qurilmasi, oddiy va maxsus kesish asboblaridan foydalanish, sovitish va moylash suyuqliklarining xususiyatlari, issiqlik bilan ishlov berish turlarini bilishimiz, texnologik dasturlarni o'qiy olishimiz lozim.

Kun davomida murakkabligi va hajmiga qarab 15-20 tagacha detal yasash mumkin. Ishimizni bitirgandan keyin naryadni texnik nazorat bo'limiga topshiramiz. Ishimizdan brak chiqmasa, keyingi ishga naryad beriladi. Shukurki, hozirgacha braksiz ishlamoqdaman.

Oilada 6 nafar farzand edik. Onam juda qattiqqo'l bo'lgani uchun, xotin-qiz bilishi kerak bo'lgan hamma ishni o'rganganman. Bolaligimda xafa bo'lgan bo'lsam, hozir onamdan mingdan ming roziman. U kishi menga hayot maktabini o'rgatganlar.

Turmush qurib qo'shaloq mukofot – "Mehnat shuhrati" ordeni va "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni sohibi Zulfiya Ahmedovaning oilasiga kelin bo'lib tushdim. U kishi 14 yil zavodimizning temirchilik-presslash sexida mashinist bo'lib ishlaganlar. Turmush o'rtog'im Sodiqjon aka bilan to'rt nafar farzandni tarbiyalamoqdamiz. Katta qizim Nafisa "Farhod" madaniyat saroyining rassomchilik to'garagiga qatnashadi, bir qancha mukofotlar ham olgan, - deydi Nargiza Ergasheva.

"Farhod" madaniyat saroyining "Tasviriy san'at" studiyasi qatnashchilari Chexiyada o'tkazilgan "Lidise 2023" 51-xalqaro bolalar tasviriy san'at ko'rgazmasida ishtirok etib, g'oliblar safidan o'rin olgan. 2024-yil 25-mart kuni "NKMK tarixi" muzeyida Chexiya Respublikasining O'zbekistondagi elchisi Lubomir Frebortning "Farhod" madaniyat saroyida ijodkor yoshlar bilan bo'lib o'tgan uchrashuvida, studiyaning faol qatnashchilari qatori Nafisa Baxorayimova ham sertifikat va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi. Bu esa, ona uchun katta baxtdir!

"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati raisi Tanzila Norboyevaning Navoiy viloyatiga tashriflari chog'ida shahrimizda uyushtirilgan tadbirlarda qatnashib, mahorat darslarini ko'rsatdim, opa stanokda ishlashimini ko'rib hayratlangani, mehnatimga yuqori baho berib, e'tirof etgani bir umr xotiramda muhrlanib qoladi", – deydi Nargiza faxr bilan.

Ochiq chehrali, mehnatkash, shijoatli qahramonimizning orzulari osmon. Ayni vaqtda u bilim va malakasini yanada oshirish, mutaxassis bo'lish niyatida Toshkent davlat iqtisodiyot va pedagogika oliygohining sirtqi yo'nalishida tahsil olmoqda.

**A.AXMEDOVA.**

# Магия цифр покорила ее сердце

**Современная женщина многозадачная. Она сильная личность, успевает не только заботиться о семье, но и делать карьеру. Много работает и многого добивается. Причем зачастую в отраслях, которые ранее считались сугубо мужскими. Современной женщине необходимо удовлетворять свои профессиональные амбиции, не забывая при этом о близких и уделяя им должное внимание. Об одной из таких женщин мы расскажем в нашем выпуске.**

Родилась Наргиза Жамилова 2 декабря 1977 года в г.Учкудуке в семье рабочих. После школы поступила в Ташкентский финансовый институт. По завершении учебы начала трудовую деятельность в Централизованной бухгалтерии Северного рудоуправления. Работа экономиста финансового отдела заключалась в подготовке документов для оплаты по договорам, контроль исполнения договоров, выставление штрафных санкций при нарушении договорных обязательств со стороны контрагента.

С первых дней своей деятельности Наргиза Жамилова, ощущала, что находится на своем месте и каждый раз, когда глубже познавала профессию, чувства также глубоко крепли! Со временем нарастила оперативность в выполнении своих обязанностей, и между делом стала изучать работу коллег в отделе, помогать им. Магия цифр покорила ее сердце!

- В нашем отделе у каждого сотрудника было свое направление деятельности, т.е. это и бухгалтер по банковским операциям, и бухгалтер по спецталонам (талоны ЛПП), и бухгалтер по командировкам, и бухгалтер по кассе, и бухгалтер по дебиторской и кредиторской задолженности - делится воспоминаниями Н.Жамилова. Когда коллеги уходили в отпуск, вопрос замещения на период отпуска не возникал, всю работу доверяли, знали, что не подведу.

Через полтора года Наргизу Жамилову переводят в производственный отдел бухгалтером рудника «Новый», где велась добыча мрамора, гранита, известняка, глины и производство мраморной плитки, гранитного щебня и прочей продукции. Здесь она научилась правильному ведению учета товарно-материальных ценностей, основных средств, готовой продукции, изучила производство, составляла калькуляции производственной себестоимости готовой продукции, вела учет реализации готовой продукции рудника. Позже, работая в производственном отделе, ответственность ведения учета и контроля выросла до масштабов рудоуправления.

В 2004 году принята бухгалтером Западного рудоуправления, через год назначена главным бухгалтером. Там Наргиза Жабборовна вела бухгалтерский учет и составляла бухгалтерскую отчетность по рудоуправлению.

С 2011 года по 2013 годы работала главным бухгалтером в подразделениях НПЦ «Геология драгметаллов и урана». С июля 2013 года по март 2015 года работала главным бухгалтером Объединенного Профсоюзного комитета №1 Северного РУ. С марта 2015 года была принята заместителем главного бухгалтера Северного рудоуправления, а с апреля 2016 года по настоящее время - заместитель главного бухгалтера НГМК в г.Навои.



Будучи знатоком всех особенностей бухгалтерии, Наргиза Жабборовна обладает глубокими знаниями и ценнейшим трудовым опытом, которые позволяют на высоком профессиональном уровне заниматься бухгалтерским учетом и ведением бухгалтерской и налоговой отчетности, она участвует в анализе и планировании финансовой деятельности НГМК. За лидерские и человеческие качества, трудолюбие и грамотность руководство комбината и коллеги уважают и ценят Наргизу Жабборовну.

Плодотворный труд Н.Жамиловой отмечен многократными грамотами и благодарностями. Она награждена нагрудным знаком «Горняцкая слава» III степени, памятным знаком «30 лет Конституции Узбекистана». В списке достижений также магистратура в Банковско-финансовой академии Республики Узбекистан, сертификат международного уровня по международным стандартам финансовой отчетности.

По мнению Наргизы Жамиловой желание построить успешную карьеру в какой-либо сфере, в том числе и в бухгалтерии, мало. Нужно понимать, чего вы хотите достичь. Правильно выбранная цель, знания, усердие, трудолюбие, амбиции, желание развиваться, внимательность к деталям, цифрам, умение работать в команде, лояльное отношение к требованиям руководителя, умение самостоятельно принимать решения в пределах своей компетенции, личностный рост вместе с компанией, если компания выбрала такую стратегию - это то, что поможет состояться в выбранной сфере деятельности. Профессия должна нравиться, работа обязательно должна приносить моральное удовлетворение.

Помимо работы яркие краски и радость в жизнь Наргизы Жамиловой привносят ее дети дочь Нармина и сын Шахизар, с которыми они много времени проводят за чтением книг и приготовлением домашней выпечки.

Вот какая Она – Женщина-руководитель, мама, жена, верный друг – Наргиза Жабборовна Жамилова, доказывающая каждодневно что женщине по плечу любые, даже самые трудные участки, работы.

**Ситора ЯТИМОВА.**

## EZGULIKNING SAVOBI CHEKSIZDIR

**Bemorlar va nogironlarga mehr-muruvvat ko'rsatish xalqimizning azaliy qadriyatlaridan. Bunday insonparvarlikning toshu tarozusi, o'lchov mezonlari yo'q. Shunday ekan, qaysi bir yurtdoshimiz bizning mehrimiz, yordamimizga, moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashimizga muhtoj ekan, unga hamisha e'tibor va ko'mak berishga shoshilaylik.**

Inson boshiga tashvish tushmasin ekan. Navoiy shahrida yashovchi, "NKMK" AJ Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari boshqarmasida shaharlararo telefon aloqasi telefonisti bo'lib ishlab kelayotgan Dilrabo Po'latova kutilmaganda og'ir dardga yo'liqdi. U ikki tomonlama sinxron ko'krak saratoni xastaligidan aziyat chekmoqda.

Dilrabo Po'latovaning sog'ayib ketishi uchun unga katta mablag' talab etadigan davolash muolajalari o'tkazilishi shart. Ayni paytda u saxovatpesha insonlar ko'magiga muhtoj. Mana shunday qiyin vaziyatda muhtojlarga yaxshilik qilish, ixtiyoriy tarzda moddiy yordam ko'rsatishning ajru savobi cheksizdir, azizlar!

**HUMO** 9860 1201 4076 5138
**Dilrabo Po'latova** nomida
**Hisob raqam** 22 618 000 198 668 541 201

KONCHILAR HAYOTI
MUASSIS:
"NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI" AJ

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2022-yil 4-fevralda 1521-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

Muharrir:
**Nizomiddin SADRIDDINOV**

ISSN 2010-5266

**Tahririyat manzili:**
210100.
Navoiy shahri, Navoiy ko'chasi, 27-uy,
"NKMK" AJ boshqarmasi
**Telefonlar:**
Muharrir: 79 227-74-64.
Faks: 79 227-75-66

Gazeta har oyda ikki marta chop etiladi va "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ, "Navoiyuran" DK, "NKMK jamg'armasi" DM bo'linmalariga tarqatiladi.
Bahosi kelishilgan narxda.

Gazeta "Konchilar hayoti" gazetasi tahririyatida terildi va sahifalandi.
"Noshir Lux" MChJ bosmaxonasida ofset usulida bosildi.
Nashr sifati bo'yicha (91) 557-10-95 raqamli telefonga murojaat etishingiz mumkin.
**Bosmaxona manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Navbatchi: **Sitora ASANOVA**
Texnik muharrir: **Zafarjon OLIMOV**

Qog'oz bichimi A2. 12100 nusxada chop etildi.
Buyurtma № 476.
2024-yil 13-sentabr 17:00 da chop etishga topshirildi.